

2023  
1(9)



ISSN 2181-2551  
E-ISSN 2181-2561

**IQTISODIYOT VA TURIZM**  
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

**ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ**  
международный научно-  
инновационный журнал

**ECONOMICS AND TOURISM**  
international scientific and  
innovative journal

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



**ISSN 2181-2551**  
**E-ISSN 2181-256X**

**"IQTISODIYOT VA TURIZM"**  
**xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali**

**«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»**  
**международный научно- инновационной журнал**

**"ECONOMICS AND TOURISM"**  
**international scientific and innovative journal**

**№1(9) 2023**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022 yil 30 apreldagi 315/5-son qarori bilan iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.**



## MUNDARIJA

<b>Муродова Нодира Қуллиевна.</b> Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик: ривожланиши ва фаолият таҳлили .....	5
<b>Shadieva G.M.</b> The role of family business in the development of the national Economy .....	16
<b>Бекмуродов Н.Х., Абдуллаева Х.Н.</b> Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг тармоқлардаги ривожланиш таҳлили .....	24
<b>Норов Акмал Рузимаатович.</b> Тижорат банкларида кредит таъминотни такомиллаштириш орқари иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари .....	33
<b>Бекимбетова Гулнора Маратовна.</b> Мировой опыт методологии экспертизы инвестиционных проектов .....	47
<b>Жумаев Олимжон Садуллоевич.</b> Корхонанинг маркетинг фаолиятини комплекс иқтисодий таҳлил қилишнинг илмий-методологик асосларини ишлаб чиқиш .....	61
<b>Захидова Зулфия Халилуллаевна.</b> Кичик бизнес субъектларини молиялаштириш орқали рақамли иқтисодиётни ривожлантириш механизмлари .....	79
<b>Шохжаҳон Элмуродов.</b> Яширин иқтисодиёт давлат молия тизимига таъсирининг таҳлили .....	89
<b>Саипназаров Шербек Шайлавбекович.</b> Тижорат банкларида молиявий инжиниринг концепциясини таъминлаш истиқболлари.....	97
<b>Тўраева Нафиса Одилжоновна.</b> Кичик бизнес субъектлари фаолиятини ривожлантиришда рақамли иқтисодиёт технологиялардан самарали фойдаланиш йўллари.....	107
<b>Тухтабаев Жамшид Шарафетдинович.</b> Саноат корхоналарида меҳнат самарадорлигини ошириш механизмининг такомиллаштиришнинг объектив зарурияти .....	119
<b>Ж.А.Хайдаров.</b> Хизмат кўрсатиш инфратузилмасини ривожлантиришнинг моҳияти .....	133
<b>D.Sh.Yavmutov.</b> Mamlakatda ekologik muammolar holatini yaxshilash orqali mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'llari .....	142

16. Зайнутдинов Ш.Н. Хизмат кўрсатиш соҳаси менежменти. – Т.: Иқтисодиёт, 2012.
17. М.М.Муҳаммедов. Ўзбекистон иқтисодиётининг тарихи. - Т.: “Fan va texnologiya nashriyot-matbaa uyi” нашриёти, 2021. – 376 бет.
18. М.Қ.Пардаев, Қ.Ж.Мирзаев, О.М.Пардаев Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA” нашриёти, 2014. – 384 бет.
19. М.Қ.Пардаев ва Ҳ.Н.Мусаевлар умумий таҳрири остида. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: Iqtisod-moliya, 2008. – 259 б.

UO‘K: 332.02

*D.Sh.Yavmutov*

**Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot  
kafedrasi dotsenti, i.f.n., O‘zbekiston**

## **MAMLAKATDA EKOLOGIK MUAMMOLAR HOLATINI YAXSHILASH ORQALI MINTAQALARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASH YO‘LLARI**

**Annotasiya.** Maqolada mamlakatda ekologik muammolar holatini yaxshilash orqali mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'llari tahlil qilingan. Mintaqalarda ekologik muammolarni pasaytirish yo'llari taklif qilingan.

**Abstract.** The article analyzes ways to ensure sustainable development of regions by improving the situation related to environmental problems in the country. Ways to reduce environmental problems in the regions are proposed.

**Аннотация.** В статье анализируются пути обеспечения устойчивого развития регионов путем улучшения ситуации связанные с экологическими проблемами в стране. Предложены пути снижения экологических проблем в регионах.

**Kalit so‘zlar.** Global, mintaqaviy, mahalliy, ekologik, tabiiy resurslar, ichimlik suvi, ifloslanish, O‘zbekiston, sanoat chiqindilari, qishloq xo‘jaligi chiqindilari, oqova suvlar, Orol dengizi.

**Key words:** Global, regional, local, ecological, natural resources, drinking water, heating, Uzbekistan, industrial waste, agricultural waste, waste water, Aral Sea.

**Ключевые слова:** Глобальные, региональные, локальные, экологические, природные ресурсы, питьевая вода, загрязнение, Узбекистан, промышленные отходы, сельскохозяйственные отходы, сточные воды, Аральское море..

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining markazida, Osiyo va Yevropa qit‘alarining tutash chegarasida joylashgan. Mamlakatning joylashgan o‘rni, iqtisodiy-geografik nuqtai-nazardan qulay va xalqaro transport-kommunikasiyalar bog‘lanmasida katta imkoniyatlarga ega. Tabiiy-geografik jihatdan mamlakat Orol dengizi havzasining markazida, berk havzada joylashganligi, hududi asosan tekisliklardan va qisman, tog‘li va tog‘oldi hududlardan iborat ekanligi, maydonining katta qismida Qizilqum cho‘li joylashganligi tabiatining shakllanishiga hamda hozirgi ekologik holatning yuzaga kelishida asos bo‘luvchi omillardan sanaladi.

Hozirgi kunda global, mintaqaviy va mahalliy miqyosda ekologik vaziyatning murakkabligini his etayotganimizda, bebaho tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal qilishning tezkor yo‘llarini topish juda muhim sanaladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Д. А. Массерое, А. В. Кирюшин, М. В. Кустовlarning “Rossiyaning barqaror rivojlanishida ekologik xavfsizlikning roli”<sup>1</sup> asarida ekologik xavfsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni jamiyatning barqaror rivojlanishga o‘tish sharoitida ko‘rib chiqiladi. Mualliflar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologik xavfsizlik o‘rtasidagi ziddiyatni hal qilishda o‘zlarining nazariy yondashuvlarini taklif qilishadi. "Ekologik xavfsizlik" tushunchasi ikki jihatdan ko‘rib chiqiladi: ijtimoiy rivojlanish xavfsizligi va atrof-muhit xavfsizligi nuqtai nazaridan. Barqaror rivojlanish, ideal holda, jahon iqtisodiy tizimi uchun faqat bir butun sifatida va global ekologik xavfsizlik sharoitida mavjud bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi.

M. A. Pashkevich va A. S. Danilovlarning “Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish” asarida mualliflar ishlab chiqarish sohasini barqaror rivojlantirish sohasida jahon hamjamiyatining oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishdagi muvaffaqiyat sanoat ob’ektlarining texnogen ta’sirini monitoring qilish va baholash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, sanoat korxonalarida ekologik texnologiyalarni rivojlantirish bilan ta’minlanishi kerakligini ta’kidlashadi. Hozirgi vaqtda atrof-muhitning barcha tarkibiy qismlari, shuningdek, fan va texnikaning rivojlanish vektori bilan belgilanadigan antropogen ob’ektlar va jarayonlarning ekologik monitoringiga katta e’tibor berish lozimligi, bu zamonaviy "yashil iqtisodiyot"ning takomillashuviga olib kelishin qayd qilishadi<sup>2</sup>.

O.V. Petko, T.L.Sudovalar “Jamiyatning barqaror rivojlanishi kontseptsiyasida ekologik xavfsizlik” maqolasida barqaror rivojlanish kontseptsiyasini amalga oshirish muammolari va jamiyatning barqaror rivojlanishida ekologik xavfsizlikning roli ko‘rib chiqiladi. Barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va ulardan kompaniyalarning moliyaviy bo‘lmagan hisobotlarida foydalanishga alohida e’tibor qaratilgan<sup>3</sup>.

A. Toktogulovning “*Ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish*” maqolasi bugungi kunning dolzarb muammosiga - barqaror rivojlanishga erishish doirasida ekologik xavfsizlikni qonunchilik bilan ta’minlashga bag‘ishlangan. Ekologik xavfsizlik kontseptsiyasining mohiyati sayyoramizning barcha davlatlarini birlashtiruvchi kollektiv, universal xavfsizlik tizimini yaratish, demak, ba’zi davlatlar xavfsizligini boshqalar zarariga mustahkamlashga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi, izolyatsiya qilingan ekologik xavfsizlik tizimlarini yaratish maqsadga muvofiq emasligi, ekologik xavfsizlik, siyosiy xavfsizlik kabi, xalqaro huquqning barcha sub’ektlari uchun teng va ajralmasligi ta’kidlangan<sup>4</sup>.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarini o‘rganishning ilmiy usullari – tizimli tahlil, guruhlash, umumlashtirish, kuzatish, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ekologik siyosat masalalari yangi O‘zbekiston kun tartibida muhim o‘rin tutadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yashil Makon" tashabbusi haqiqatan ham umummilliy loyiha bo‘ldi. Orol inqirozi oqibatlarini yumshatish, changli bo‘ronlar bilan kurashish va Orolbo‘yidagi ijtimoiy-ekologik vaziyatni barqarorlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Birlashgan

<sup>1</sup> Массерое Д. А., Кирюшин А. В., Кустов М. В.. Роль экологической безопасности в устойчивом развитии России <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-ekologicheskoy-bezopasnosti-v-ustoychivom-razviti-rossii>.

<sup>2</sup> Пашкевич М. А., Данилов А. С.. Экологическая безопасность и устойчивое развитие. [https://pmi.spmi.ru/pmi/article/view/16233?setLocale=ru\\_RU](https://pmi.spmi.ru/pmi/article/view/16233?setLocale=ru_RU).

<sup>3</sup> Петко О.В., Судова Т.Л.. Экологическая безопасность в концепции устойчивого развития общества. <https://giefjournal.ru/node/246>.

<sup>4</sup> Токтогулов А. Экологическая безопасность и устойчивое развитие. <https://psi-ped.euroasia-science.ru/index.php/Euroasia/article/view/713>.

Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2021 yil 18 maydagi Maxsus rezolyutsiyasida Orolbo'yi mintaqasini "ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi" deb e'lon qilindi<sup>1</sup>.

O'zbekistonda bugungi kunda qator ekologik muammolar shakllangan bo'lib, ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz. Iqtisodiyot tarmoqlarida suv iste'moli oshib borayotgan sharoitda, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida, qishloq xo'jaligida, shuningdek sanoatda (to'qimachilik, yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo, metallurgiya va boshqalar) o'rtacha yillik suv iste'moli yuqori bo'lib qolmoqda, suv tanqisligi esa iqlim o'zgarishi tufayli kuchayib bormoqda. Aholining ko'payishi sifatli ichimlik suviga bo'lgan talabni oshirishi kutilmoqda. Suv obyektlarining (yer usti va yer osti suvlarining) ifloslanishi asosan oqova suvlarni tozalash bo'yicha infratuzilmaning samarasiz ishlashi natijasida yuzaga kelmoqda. Asosiy ifloslantiruvchi manbalar –sanoat, qishloq xo'jaligi va kommunal korxonalaridir. Suv sarfini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va qayta ishlash, shuningdek, shahar va qishloq aholisi uchun barqaror yechimlarni joriy etish bo'yicha sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Atmosfera havosi statsionar va ko'chma manbalardan ifloslanishi noqulay iqlim sharoitlarida yanada kuchaymoqda. Bu ko'p jihatdan asosiy tarmoqlar – energetika, neft-gaz sanoati, metallurgiya, kimyo sanoati, qurilish industriyasi, shuningdek, avtotransport sonining o'sishi bilan bog'liq. Mamlakat hududida atmosferada karbon oksidi va uglevodorod chiqindilari kamaymoqda, ammo, azot oksidi va qattiq zarralar chiqindilari ko'paymoqda. Eng ko'p chiqindilarni energetika (76%) va qishloq xo'jaligi (18%) sektorlari chiqarmoqda.

O'zbekistonda yer resurslarini boshqarishda ham salbiy, ham ijobiy tendentsiyalarni kuzatishimiz mumkin. Salbiy tendentsiyalarga tabiiy-iqlimiy omillar va antropogen faoliyat tufayli yuzaga kelgan cho'llanish jarayonlari kiradi. Ijobiy tendentsiyalarga yashil o'simliklar maydonini ko'paytirish, paxta uchun ajratilgan yer maydonlari qisqargani va sabzavot, don, meva va em-xashak ekinlari yetishtirish uchun yer maydonlarining ko'paygani, shuningdek, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarining joriy etish bo'yicha davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'payganini ko'rish mumkin.

Suv resurslaridan me'yoridan ortiqcha foydalanish yerlarning degradatsiyasi va cho'llanishining ortishiga olib kelmoqda. Irrigatsiya tarmoqlaridan oqilona foydalanmaslik, suv ta'minoti infratuzilmasining eskirganligi Orol dengizining qisqa muddatda cho'lga aylanishiga va qurib ketishiga olib keldi. Ushbu ekologik falokat biologik xilma-xillikni yo'qotish, baliq zaxiralarini kamaytirish va mahalliy aholining farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekistonning suv muammolarining shakllanishi ko'p qirrali bo'lib, geografik, iqlimiy, iqtisodiy va boshqaruv omillari bilan bog'liq. Mamlakat iqlimining quruqligi, suv resurslarining cheklanganligi omillari suv resurslarini barqaror boshqarish uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyoning qurg'oqchi hududida joylashganligi sababli, suv tanqisligiga duch kelmoqda.

O'zbekiston demografik va iqtisodiy rivojlanishning tabiiy resurslarga salbiy ta'sirini bartaraf etish bo'yicha sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. 2019 yilda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi tasdiqlandi, u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash asosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, agrosanoat majmuasini rivojlantirish va boshqarish bo'yicha strategik ustuvorliklarni

<sup>1</sup> <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/projects/orolboyi-mintaqasi-boyicha-kop-tomonlama-yol-xaritasi>

qamrab oladi<sup>1</sup>. Mamlakatda suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, dehqonchilikda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish va ularni davlat tomonidan qo'llab - quvvatlash, shuningdek, qishloq xo'jaligida yer - suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasiga muvofiq sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda<sup>2</sup>. Suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qoplangan maydon sug'oriladigan yer maydonlarining taxminan 25 foizini tashkil qiladi. Bu juda kam miqdor.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan strategiyasida ustuvor yo'nalishlar (31-maqсад) belgilangan bo'lib, ularda asosiy e'tibor suv xo'jaligi va suvni tejash tizimini isloh qilish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, suv xo'jaligi obyektlarida elektr energiyasi iste'molini kamaytirish bo'yicha davlat dasturini amalga oshirishga qaratilmoqda<sup>3</sup>.

Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lsa-da, u irrigatsiya tizimlari samarali faoliyatiga yuqori darajada bog'liq. Sug'orishning samarasiz usullari, shu jumladan, eskirgan infratuzilma va texnikadan foydalanish suvni haddan tashqari iste'mol qilishga olib kelmoqda, bu esa suv resurslarining behuda sarflanishiga va kamayishiga olib kelmoqda. Suv resurslarini kompleks boshqarishning yo'qligi ularning teng taqsimlanmasligiga va me'yorida ortiqcha sarflanishiga sabab bo'lmoqda.

Sanoat chiqindilari, qishloq xo'jaligi chiqindilari va oqova suvlarni yetarli darajada tozalanmasligi, suvning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda, bu esa ham yer usti, ham yer osti suvlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday ifloslanish inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavf tug'dirmoqda.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda issiqxona gazlari chiqindilari 2017 yilda 189,2 mln tonnaga yetdi va bu ko'rsatkich 2013 yilga nisbatan 0,6% ga kamaygan. Mamlakat energiya tejaydigan va ekologik xavfsiz texnologiyalarni ilgari surish, shuningdek, iqlim dasturlarini moliyalashtirish uchun resurslar hisobiga 2030 yilga kelib yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan Korbanat angidrid gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish majburiyatini oldi.

Orol dengizi mintaqasining ekologik muammosi xalqaro ahamiyatga ega va global muammoga aylanib ulgurdi. XX asrning ikkinchi yarmida Orol dengizining holati beqarorlik bosqichiga kirdi. Antropogen ta'sir tufayli suv hajmi va oqimi kamayishi, sho'rli oshishi, baliqlarning biologik xilma-xilligi kamayishi va boshqa salbiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Orol dengizining qisqarishi barcha qo'shni mamlakatlar ekotizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, uning inqirozi to'g'ridan-to'g'ri Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekistonga, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlariga, shuningdek, bilvosita - Tojikiston va Qirg'izistonga ta'sir ko'rsatmoqda. Suv havzalari va tuproqlar sho'rlanishining hozirgi mavjud tendensiyalari saqlanib qolsa, bir necha o'n yillar ichida Sirdaryo havzasidagi qishloq xo'jaligi yerlarining katta qismi sug'oriladigan dehqonchilik uchun yaroqsiz bo'lib qoladi, Amudaryo havzasida ham shunga o'xshash vaziyat yuzaga keladi. Daryolarning ifloslanishi esa hududning ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tuzatib bo'lmaydigan talofat etkazadi.

Aholi soning ko'payishi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi turli chiqindilarning ko'payishiga va ularning aholi jon boshiga nisbatan ulushing ortishiga olib kelmoqda. Biroq, O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash, bu yo'nalishni yaxshilash va chiqindilar miqdori hamda turini qisqartirish uchun imkoniyatlar mavjud. So'nggi yillarda qattiq

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son Farmoni

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 – son Farmoni.

maishiy chiqindilar bilan bog'liq infratuzilmani jadal rivojlantirishga va ularni to'plash darajasini oshirishga ko'maklashadigan investitsiyalar amalga oshirildi. Biroq, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish texnologiyalarini joriy etish past darajadadir, natijada chiqindilar asosan poligonlarga olib chiqiladi. Maishiy chiqindilarni boshqarish sohasida ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, sanoat chiqindilarini boshqarish sohasida muammolar mavjud. Tibbiy chiqindilarni saqlash, tashish va utilizatsiya qilishning yagona tizimi mavjud emas. Bundan tashqari, elektron chiqindilar va batareyalarni to'g'ridan-to'g'ri yig'ish va tozalash bilan bog'liq muammolar mavjud.

Aholi salomatligiga kelsak, bu borada ijobiy va salbiy tendentsiyalar kuzatilmoqda. O'zbekiston aholisining sog'lig'i sezilarli darajada yaxshilandi (masalan, bola o'limining kamayishi yoki kam vaznli bolalar soni qisqardi) va oziq-ovqat iste'molidagi tarkibiy o'zgarishlar hisobiga ovqatlanish sifati yaxshilandi. Shu bilan birga, O'zbekiston fuqarolari uchun yuqumli bo'lmagan kasalliklarning to'rtta asosiy guruhidan (yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, surunkali respirator kasalliklar yoki saraton) oldindan o'lish ehtimoli 26,9% ni tashkil qilmoqda, erkaklarda bu ayollarga (21,4%) qaraganda ancha yuqori (32,9%).

O'zbekistonda inson faoliyatining salbiy ta'siri va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan atrof-muhit muhofazasi hamda farovonlikka erishish uchun mamlakat hududlarida qator tadbirlar ko'zda tutilgan va amalga oshirilmoqda. O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish va inson taraqqiyoti borasida xalqaro maydonda faol ishtirok etmoqda. Mamlakat atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish sohasida 14 ta xalqaro konvensiya, shuningdek, 20 dan ortiq protokollar, bitimlar va o'zaro anglashuv memorandumlarining ishtirokchisidir. O'zbekiston Parij shartnomasi doirasida 2030 yilgacha bo'lgan davr uchun issiqxona gazlari chiqindilari bo'yicha o'z majburiyatlarini yangiladi va kuchaytirdi.

O'zbekiston Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasi va XXI asr uchun kun tartibi tamoyillarini qo'llab-quvvatlaydi va 2030 yilgacha bo'lgan 16 barqaror taraqqiyot milliy maqsadlarini qabul qildi, shu jumladan, aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha mamlakat faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Mamlakatda atrof-muhit muhofazasi, ekologik muammolarni yaxshilashga yo'naltirilgan milliy va xalqaro darajadagi loyihalar moliyalashtirilishi juda past darajada. Hozirgi vaqtda ekologiya vazirligi tomonidan umumiy qiymati 106,547 mln. dollar bo'lgan 31 ta xalqaro grant loyihasi amalga oshirilmoqda. 2023-2024 yillarda umumiy qiymati 39,8 mln AQSh dollari bo'lgan yana 8 ta xalqaro loyiha amalga oshirish rejalashtirilgan.

O'zbekistonda aholining va iqtisodiyotning sezilarli o'sishi kuzatilmoqda, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik o'zgarishlarning asosiy omillaridan biridir. Aholining sifatli oziq-ovqat, suv, energiya, toza havo va boshqa tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, aholi daromadlarini oshirish va mintaqaviy va global rivojlanishga umumiy hissa qo'shishni o'z ichiga oladi.

Mamlakatda ekologik muammolarni pasaytirish, iqtisodiy barqaror rivojlanishga erishishning eng muqobil yo'li sifatida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish sanaladi.

UNEP va iqlim o'zgarishlari bo'yicha Hukumatlararo komissiya tomonidan 2012 yilda chop etilgan "Tiklanadigan energiya manbalari va iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatish" ("Renewable Energy Sources and Climate Change Mitigation") maxsus hisobotida esa tiklanadigan energiya manbalari energiyaning boshqa turlariga nisbatan



atrof-muhitga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatishi, iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatishning yuqori salohiyatiga ega ekanligi ta'kidlangan.

Resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashning jahon tajribasi ko'rsatishicha, ushbu jarayon uzoq muddatli davr, katta miqdorda investisiyalarni talab etishi, ustuvor e'tibor tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayoni har bir mamlakat va uning mintqalari uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi. Shu sababli, o'tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag'batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo'llanadigan rag'batlantiruvchi omillar, jumladan, investisiyalar va davlat xaridlari «yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirishga yo'naltirilsa, iqtisodiy tizimni “yashillashtirish” jarayoni yanada faollashadi.

Aksariyat mamlakatlar «yashil iqtisodiyot»ga o'tish strategiyasida aniq maqsad va vazifalarni belgilab olishadi. Bu o'rinda, “yashil iqtisodiyot”ga o'tishda maqsad nima?” degan savol tug'iladi. BMT Yevropa iqtisodiyot qo'mitasi mutaxassislarining ta'kidlashicha, «yashil iqtisodiyot»ga o'tishdan maqsad – iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada “yashil investisiyalar”ni yo'naltirishni rag'batlantirish hisoblanadi. Ushbu investisiyalar mintaqalarning muhim iqtisodiy resursi hisoblangan tabiiy kapital va ekotizimlardan nisbatan samarali usullar yordamida foydalanish yoki ularni tugab qolishi yoki degradasiyalashuvi xavfi paydo bo'lganda boshqa muqobil resurslar bilan almashtirishga yordam beradi. Investisiyalar mintaqalarda bir vaqtning o'zida ijtimoiy adolat uchun sharoit yaratishi va fuqarolarga munosib ish o'rinlari barpo etishi zarur. Atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ijtimoiy integratsiyani chuqurlashtirish, iqtisodiy rivojlanishni yaxshilash kabi vazifalar «yashil iqtisodiyot»ning vazifalariga kiradi .

Mintaqalarning “yashil iqtisodiyot”ga o'tish maqsadi va strategik vazifalari muayyan tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi. «Yashil iqtisodiyot»ga o'tish tamoyillari mazkur mintaqa iqtisodiyoti qanday bo'lishi zarurligini belgilab beradi. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari “qo'ng'ir iqtisodiyot” tamoyillariga nisbatan keng qamrovli bo'lib, 1972 yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqildi .

Iqtisodiy adabiyotlarda xalqaro va milliy amaliyotda 2012 yilda UNEP boshqaruv kengashi “yashil iqtisodiyot koalitsiyasi” tomonidan ishlab chiqilgan “yashil iqtisodiyot”ga o'tishning quyidagi tamoyillari keng tarqalgan: barqarorlik, adolatlilik, barcha uchun foydalanish imkoniyatining mavjudligi, sog'lom sayyora, ishtirok etish, oqilona boshqarish va shaffoflikni ta'minlash, moslashuvchanlik, samaradorlik va yetarlilik, avlodlar birdamligi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish tamoyillari BMTning barqaror rivojlanish global maqsadlariga hamda milliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga muvofiq holda belgilangan va ularning maqsad va vazifalarini to'la qamrab oladi.

O'zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o'tishining asosiy zaruratlaridan biri bu mamlakatda va uning mintaqalarida iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdir. “Yashil iqtisodiyot” iqtisodiy rivojlanishning shunday shakli, unda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o'zaro uzviy bog'langan holda, bir-birini taqozo etgan holda, barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Jahonning barcha mamlakatlari singari O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishini Kovid-19 pandemiyasidan oldingi darajaga olib chiqishga, uning barqarorligini mustahkamlashga, pandemiyaning asoratlarini uzil-kesil yo‘qotishga, shu bilan birga milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarida barqaror o‘shishni ta‘minlashni maqsad qilib qo‘ygan. Bu o‘z navbatida katta iqtisodiy, moliyaviy, tabiiy, energetika, inson resurslarini ta‘lab qiladi. Ikkinchi tomondan, mamlakatda aholi va xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar soni hamda ularning daromadlari ortib borishi kuzatiladi. Bu o‘z navbatida katta hajmdagi energetika resurslariga talabni yuzaga keltiradi. Ushbu ma‘lumotlardan ko‘rinmoqdaki, energiya iste‘molchilarining dastlabki ikki vakillarining O‘zbekistonda yaqin istiqbolda o‘shishi energiyaga bo‘lgan talabning yanada ortishini anglatadi.

Respublikada “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruratini yana shu bilan asoslaymizki, mamlakatda energiya ishlab chiqarish deyarli to‘liq uglevodorodlar (neft, tabiiy gaz, ko‘mir)ni ishlab chiqarishga bog‘liq bo‘lib turibdi. O‘zbekistonda uglevodorod energetikasidan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 4,5 foizini yo‘qotmoqda. Xalqaro amaliyotga nisbatan mamlakat iqtisodiyoti energiyatalab va uglerodtalab sanaladi. Respublika YaIMning energiyatalabligi bo‘yicha dunyodagi yetakchi o‘n davlatdan biri sanaladi. Shu sababdan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish o‘z navbatida “yashil energetika”ga o‘tishni talab qiladi va O‘zbekistonda muqobil energetika tizimining shakllanishi ob‘ektiv zaruratdir.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish zaruratining yana bir muhim zarurati shuki, respublikadagi energiya ishlab chiqarish va yetkazib berish quvvatlarining 40 foizga yaqini ma‘nan hamda jismonan eskirgan. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, mamlakatdagi elektr energiyasi tarmoqlari aksariyat qismi 30 va undan ortiq yildan buyon foydalanib kelinmoqda.

Mamlakat va uning mintqalarida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning yana bir zarurati bu atrof-muhit muhofazasi masalasidir. Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan samaraliroq foydalanishni rag‘batlantirish hamda chiqindilarni va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish evaziga ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga nisbatan tabiiy resurslar iste‘molini kamaytirishga yordam beradi. Bu tabiiy resurslardan foydalanishda ekotizimlarning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlashga yordam beradi.

**Xulosa** qilib aytganda, ekologik muammolarni bartaraf etishda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning dolzarbligi va zarurligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar tugashining salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida iqtisodiyotda texnologik modernizatsiyalashni amalga oshirishning zarurligi;
- uglevodorod xom-ashyosi va uning pirovard mahsulot qiymatidagi ulushiga bog‘liqligini qisqartirish asosida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi;
- katta multiplikativ samaraga ega bo‘lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarni yangilash imkonini beruvchi Yashil innovatsiyalarni qo‘llash muhimligi;
- resurslar taqchilligi davrida resurstejamkor ishlab chiqarishni joriy qilish orqali mahsulot tannarxini optimallashtirish dolzarbligi;
- insonlar salomatligi va atrof-muhitbodligi

Yuqorida sanab o‘tilgan va boshqa hududiy ekologik muammolarni bartaraf etish, ularning ta‘sirini kamaytirish, o‘z navbatida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlaydi, barqaror rivojlanishga erishiladi. Buning uchun mavjud ekologik muammolarning kelib chiqishi sabablarini ilmiy tahlil qilgan holda, ularning ta‘sirini

kamaytirish va bartaraf etish borasida ilmiy yondashuvlardan iborat takliflar ishlab chiqilishi zarur. Muallif quyidagilar orqali ekologik muammolarni ta'siri ko'lamini pasaytirishni taklif qiladi:

- Yer va suvdan foydalanishni boshqarishni tartibga solish va tabiiy resurslardan foydalanishda innovatsion, resurstejamkor, usullarni joriy qilish.
- Ekologik muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy takliflar olish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish, shu yo'nalishda grantlar tanlovini yo'lga qo'yish;
- Ekologik yo'nalishdagi loyihalarni moliyalashtirish va mavzuga doir grantlar tanlovini e'lon qilishda mahalliy hokimliklarga vakolat berish, ular hududning xususiyatlaridan kelib chiqib, moliyaviy resurslarni taqsimlashda ustuvorlikni yo'naltirishadi.
- Ekologik madaniyatni oshirish, bu borada, hududlarning va aholining turli yosh qatlamiga mos, ta'sirchanligi yuqori bo'lgan loyihalardan foydalanish tavsiya qilinadi;
- Ekologik nazoratni va ekologik qonun buzilishi uchun javobgarlikni qat'iylashtirish va jarimalar miqdorini oshirish, "ifloslantiruvchi-to'laydi" tamoyilini barcha me'yoriy hujjatlarga kiritilishini ta'minlash lozim. O'zbekistonda ekologik soliq va uglerod solig'ini joriy qilishni taklif qilamiz;
- Ekologik muammolarni bartaraf etishda, sohada samaradorlikni oshirish bo'yicha tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, bunda "davlat-xususiy sheriklik" tamoiliga ustuvorlik berish kerak;
- Barcha viloyatlarda "hududni barqaror ekologik-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha maxsus kengash" tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Ushbu kengash tarkibida turli soha mutaxassislarining va olimlarning bo'lishi, ekologik muammolarga yechim topishda kompleks yondashuvni amalga oshirishga asos bo'ladi va masalaga kompleks baho berilib, yechim taklif etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Burxonov S., Khamidov O., Yavmutov D. Buxoro viloyatida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo'llari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 41. – №. 41.
2. Бурхонов, Ж. Х. Ў., & Явмутов, Д. Ш. (2022). Экологизация экономики возможности и перспективы развития «зеленой» экономики в Узбекистане. *Science and Education*, 3(6), 114-118.
3. Массерое Д. А, Кирюшин А. В., Кустов М. В.. Роль экологической безопасности в устойчивом развитии России <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-ekologicheskoy-bezopasnosti-v-ustoychivom-razviti-rossii>.
4. Пашкевич М. А., Данилов А. С.. Экологическая безопасность и устойчивое развитие. [https://pmi.spmi.ru/pmi/article/view/16233?setLocale=ru\\_RU](https://pmi.spmi.ru/pmi/article/view/16233?setLocale=ru_RU).
5. Петко О.В., Судова Т.Л.. Экологическая безопасность в концепции устойчивого развития общества. <https://giefjournal.ru/node/246>.
6. Токтогулов А. Экологическая безопасность и устойчивое развитие. <https://psi-ped.euroasia-science.ru/index.php/Euroasia/article/view/713>
7. Orolboyi mintaqasi boyicha kop tomonlama yol xaritasi. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/projects/orolboyi-mintaqasi-boyicha-kop-tomonlama-yol-xaritasi>.
8. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева

- Бибиражаб Миржонова Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
9. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИННИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржонова, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
  10. Yuldosheva B. The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 84. – С. 01039.
  11. Yavmutov, D. (2023). Yashil iqtisodiyotga o‘tishda xorijiy davlatlar tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.
  12. Явмутов, Д. Ш. (2021). ПРОБЛЕМЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ БУХАРСКОГО ВИЛОЯТА И ПУТИ ИХ УЛУЧШЕНИЯ. " *Экономика и туризм*" международный научно-инновационной журнал, 2(2).
  13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni
  14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son Farmoni
  15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 – son Farmoni.

***Muassislar:***  
***Buxoro davlat universiteti***  
***“Economic science” mas'uliyati cheklangan jamiyati***

<p style="text-align: center;"><b>"IQTISODIYOT VA TURIZM"</b> <b>xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali</b></p> <p style="text-align: center;"><b>2022-yil 6-son (8)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>2021-yildan chiqa boshlagan.</b></p> <p style="text-align: center;"><b>OBUNA INDEKSI: 200117</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Manzil: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy, 2-bino, 403-xona.</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>ilmiy va innovatsion nashri</b></p> <p style="text-align: center;">Jurnal oliy o'quv yurtlarining professor- o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p style="text-align: center;">Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Nashr uchun mas'ul:</b> <b>Gavhar XIDIROVA</b> <b>Muharrir:</b> <b>Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich</b></p>	<p style="text-align: center;">Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p style="text-align: center;">Bosishga ruxsat etildi 26.12.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.12.2022 Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i – 14,7 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 813. Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p style="text-align: center;">“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 11-uy.</p>
---	--	---